



**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qishga qiziqtirish orqali
og'zaki nutqini o'stirish yo'llari**

Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o'qituvchisi

Bahodirova Mexriniso Alisherovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qishga qiziqtirish orqali o'g'zaki nutqini o'stirish yo'llari haqida birqancha ma'lumot beriladi. Kitob yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil ekanligi misollar yordamida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: kitob, kitobxonlik, nutq, nutq ostirish, sinf, o'quvchi, ertak, ma'naviyat, fikrlash, qobiliyat.

Аннотация: В данной статье представлены некоторые сведения о способах повышения устной речи учащихся начальных классов за счет заинтересованности их в чтении. На примерах объясняется, что книга является важным фактором воспитания подрастающего поколения.

Ключевые слова: книга, чтение, речь, говорение, класс, ученик, сказка, духовность, мышление, способности.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish o'qituvchilar va ota-onalarning burchidir. Zero, kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Ilm orqali har bir inson kelajakda yuksak marralarni zabt etishi, yurtimizning gullab yashnashi uchun o'z hissasini qo'shishi mumkin. Kitobni oftobga qiyos etishlari bejiz emas. Kitob dillarni uyg'otib munavvar qilish bilan birga hayot mavjududot sirlaridan voqif etuvchi bebaho xazina. U ko'ngillarga ezgulik urug'ini sepib, yashashdan saboq beradi. Kitob zehnlarni peshlab bilimlar koniga eshik ochadi, ma'naviyatni boyitadi.

Ulug' alloma Abdurahmon Jomiy: —Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda, Hamrohing bo'lur u g'amli zamonda deya kitobni behad ulug'lagan ekan. Kitob tafakkur xazinasining kaliti. Mamlakatimizda har bir o'quvchi bilim olishi, sog'lom bo'lishi uchun sharoitlar yaratildi, ta'lim maskanlarida kitob fondi, zamonaviy kutubxona, axborot resurs markazlari tashkil etildi. Bu ezgu ishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa, kitob mutolaaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarda kitob mutolaasi xotirani kuchaytirib, fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi, tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi. O'quvchi har safar kitob o'qiganda miya faoliyati ishlaydi. Chunki miya olinayotgan ma'lumotni saqlash uchun yangi tolalarni yaratadi. Mamlakatimiz rivojini ta'lim asosida qurgan yaponlar har kuni 40 daqiqalik vaqtini mutolaaga ajratar ekan. Bu odat oilada bolalikdan shakllana boradi. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir bolaning oilaviy ahvoli, yashash tarzi bilan tanishgan bo'lishi shart. Agar oilada ota-ona gazeta, jurnal, kitoblar o'qisa, bola ham ulardan o'rnak oladi, kitob bilan do'st tutunadi. Agar ota-ona vaqtini ko'proq televizor qarshisida o'tkazsa, farzandi ham ularning yo'lidan boradi. O'qituvchi sinfdagi har bir o'quvchining ota-onasi bilan tez-tez muloqotda bo'lib turishi kerak. Ularga kitoblarni saqlashda bolaning yoshiga, qiziqishga qobiliyatiga e'tibor berishlarini tushuntirish kerak. Bola uyda bo'lgan vaqtlarda ular olib bergan kitoblarini o'qishi, mazmunini so'zlab berishi, vaqtini to'g'ri taqsimlashini nazorat qilishlari kerak. Mana shunday oilada tarbiyalanayotgan



bola maktabga kelgach ustozga o‘qigan kitoblarini o‘zining biyron tillari bilan so‘zlab bera oladi. Demak, bu bolaning og‘zaki nutqini rivojlantirishga yordam beryapti. Og‘zaki nutqi yaxshi shakllangan o‘quvchining yozma nutqi yuqori darajada bo‘ladi. Kitob-oftob. Zaminni, ona tabiatni oftob isitsa, odam qalbini kitob yoritadi, nurlantiradi. Quyoshsiz tabiatning, hattoki hayot davomiyligi shubha ostida qoladi. Kitobsiz ma‘naviyatning rivojlanishini ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Kitobni quyosh deb hisoblaymiz va darslarimiz davomida uning yanada yorqin nur sochishi uchun topshiriqlarni bajarish orqali yordam beramiz.

Sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linadi.

1-guruh-Kitobxonlar

2-guruh-Ertakchilar

3-guruh-Bulbulchilar

Dars davomida berilgan har bir to‘g‘ri javob uchun bitta kitob shaklidagi rag‘bat katochkasi beriladi. Dars oxirida rag‘batlar sanaladi. Qaysi guruhning kitoblari soni ko‘p bo‘lsa — “Eng faol guruh” ko‘krak nishoni, qolgan guruhlar esa — “Eng topqir”, — “Eng chaqqon” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlanadi. O‘qituvchi kimni kitobxon deyishi mumkin? Kitob o‘qishning qanday foydasi bor? Kitob sizga nima beradi? Siz kitobdan nimalarni o‘rganyapsiz? kabi savolar bilan fikrlashga chorlaydi.

Kitob insonning yaqin do‘sti, suhbatdoshi, sirdoshi. U kishining dunyoqarashini, so‘z boyligini oshiradi. Amerikalik olim yozuvchi Nil Geyman olib borgan tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki kitob mutolaa qilmaydigan bolalar kelajakda bezori bo‘lib ulg‘ayishi ehtimoli yuqori ekan. O‘quvchilarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlar, to‘garaklar, davra suhbatlarining ahamiyati katta. Ifodali she‘r o‘qish, sahna ko‘rinishi orqali o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirishga, ko‘pchilik oldida dadil so‘zlay olishga o‘rganadilar. O‘qituvchi dars davomida qo‘shimcha



adabiyotlardan, rivoyatlardan, hadislardan o‘rinli foydalansa, o‘quvchining kitobga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi. Masalan quyidagi rivoyatdan fodalanish mumkin.

Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan „Kitobim - oftobim“ (1—3-sinflar uchun) nomli qo‘llanmalar ham chop etilgan. O‘quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o‘rgatiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo‘lish bilan tanishadilar. Boshlang‘ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o‘qishdan oldin o‘quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tom osha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Bu ularda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi. Bu bosqichda o‘quvchilar har xil tezlikda bo‘g‘inlab o‘qiydilar. Shuning uchun o‘qituvchi bu jarayonda har bir o‘quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o‘qishga o‘rgata borishi lozim. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilam ing o‘qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilam ing sinfdan tashqari o‘qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o‘qigan kitoblarning sifat o‘zlashtirishiga, miqdoriga, o‘qigan kitobga munosabat bildira olishiga e’tibor beriladi. Bunda o‘quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o‘qib keladilar, ularning ayrim o‘rinlarini ifodali o‘qib beradilar, o‘qigan asarlarini o‘zaro taqqoslaydilar. Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o‘quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo‘lgan yaxshi o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o‘qishni yaxshi ko‘rishlariga erishish juda muhimdir.

Bolalar nutqini o‘stirishda turli xil didaktik o‘yinlarni tez-tez tashkil etish yo‘li bilan berilayotgan bilimni tez o‘zlashtirish imkoni tug‘iladi. Agar o‘yin bolalarga dinamik tarzda o‘rgatilsa, ular o‘yinni o‘rganib olganlarini sezmay qoladilar, o‘yin jarayonida o‘quv



materiallarini puxta o'zlashtirishga asli qiynalmaydilar. "O'yinlar bolalarning to'g'ri o'sishida juda muhim rol o'ynaydi. Bola o'yinga butun borlig'i bilan kirishib ketadi. O'yin jarayonida uning nutqi tez rivojlanadi". Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. "O'yin paytida bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi. Savod o'rgatishning so'nggi davrlarida o'qituvchi bolalarning kundalik hayoti, o'yinlari aks ettirilgan rasmlar solingan konvertlarni o'quvchilarga ulashadi va konvert ichidagi rasmlarning mazmuni bo'yicha kichik hikoya aytib beradi. O'yin vaqtida bolalarda oddiy mehnat malakalari ham hosil bo'la boradi. Alifbe davrida bolalar juda ko'p o'yinlar bilan tanishadilar, ular yordamida o'qish va yozishni o'rganadilar. Alifbe davridan so'ng esa ular ona tili va o'qish kitobi orqali bilimlarini kengaytiradilar. Bu jarayonda didaktik o'yinlar ham o'z xususiyatiga ko'ra murakkablashib boradi.

Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" T.G'afforova, Toshkent-2016
2. Azimov, Yunus, and Rustambek Qo'ldoshev. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari. GlobeEdit, 2020
3. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2017-yil, 7-son, 20-bet



4. “Mahoratli pedagog” jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet
5. Джамолдинова, О. (2015). Совершенствование педагогических механизмов реализации принципов преемственности и непрерывности в развитии культуры здоровой жизни молодежи. Каталог авторефератов, 1(1), 1-84.
6. Shagazatova, B. X., Artikova, D. M., Ahmedova, F. S., Mitxaydarova, F. S., & Ahmedova Sh, A. (2023). ENDOKRINOLOGIYA MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KLINIK REZIDENTLARNI O'QITISHDA «CASE»-USULI (Doctoral dissertation, Ўзбекистон, Тошкент).
7. Jamoldinova, O. R. (2015). Improving the pedagogical mechanisms for the implementation of the principles of continuity and continuity in the development of a culture of healthy living among young people
8. Ismailova, Z. K., Jamoldinova, O. R., Khimmataliev, D. O., Khakimov, J. O., & Daminov, O. O. (2020). Use of the art of management in improving the teaching skills and pedagogical techniques of the modern teacher. Solid State Technology, 258-267.
9. Musurmanova A, Jumaniyozova, M.T, Isaqulova, N.J, & Jumaev A. (2018). General Pedagogy.
10. Musurmonova O, Baubekova G. Uzbek folk pedagogy. Tashkent. 2000;320